



ANALYSIS OF THE STATE OF FOREIGN TRADE INDICATORS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Kamolov Uygun Tolqinovich

Bukhara Innovation University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15239471>

ARTICLE INFO

Received: 12nd April 2025

Accepted: 17th April 2025

Online: 18th April 2025

KEYWORDS

Foreign trade, international relations, exports, imports, balance of payments, trade balance, economic growth, foreign trading partners, and market diversification.

ABSTRACT

This article discusses the analysis of the state of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan. During the analysis, the country's foreign trade activities, main sectors of export and import, partner countries and trade relations, as well as foreign trade policy, problems and solutions were studied. The article emphasizes that the export potential of the Republic of Uzbekistan, the development of high-value-added products and services exports, and the expansion of new cooperation opportunities are of great importance for further improving the foreign trade situation and economic growth.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ ВНЕШНЕТОРГОВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Камолов Уйгун Толкинович

Бухарский инновационный университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15239471>

ARTICLE INFO

Received: 12nd April 2025

Accepted: 17th April 2025

Online: 18th April 2025

KEYWORDS

Внешняя торговля, международные отношения, экспорт, импорт, платежный баланс, торговый баланс, экономический рост, внешнеторговые партнеры и диверсификация рынка.

ABSTRACT

В данной статье говорится об анализе показателей внешней торговли Республики Узбекистан. В ходе анализа были изучены внешнеторговая деятельность страны, основные отрасли экспорта и импорта, страны-партнеры и торговые отношения, а также внешнеторговая политика, проблемы и пути решения. В статье отмечено, что развитие экспортных возможностей Республики Узбекистан, развитие производства продукции с высокой добавленной стоимостью и экспорта услуг, увеличение новых возможностей сотрудничества имеют важное значение для дальнейшего улучшения внешнеторговой ситуации и экономического роста.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARI HOLATI TAHLILI

Kamolov Uyg'un To'liqinovich

Buxoro Innovatsiyalar universiteti



ARTICLE INFO

Received: 12nd April 2025

Accepted: 17th April 2025

Online: 18th April 2025

KEYWORDS

Tashqi savdo, xalqaro aloqalar, eksport, import, to'lov balansi, savdo saldosi, iqtisodiy o'sish, tashqi savdo hamkorlari va bozor diversifikatsiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari holati tahlili haqida so'z yuritilgan. Tahlil davomida mamlakatning tashqi savdo faoliyati, eksport va importning asosiy tarmoqlari, hamkor davlatlar va savdo aloqalari, shuningdek, tashqi savdo siyosati, muammolar va yechimlar o'rganilgan. Maqolada, O'zbekiston Respublikasining eksport imkoniyatlari, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar eksportining rivojlantirish va yangi hamkorlik imkoniyatlarini oshirish tashqi savdo holatini yanada yaxshilash va iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.

Kirish. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi o'zining geografik joylashuvi va tabiiy resurslarining boyligi tufayli tashqi savdoga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatning tashqi savdo faoliyati iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning eksporti va importi mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda, xalqaro bozorga integratsiyalashish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tashqi savdoni rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar, yangi savdo hamkorliklarini izlash va iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar mamlakatning kelgusi iqtisodiy strategiyalarini shakllantiradi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil orqali mamlakatning tashqi savdo saldosi, eksport va importning asosiy yo'nalishlari, tashqi savdo siyosati, asosiy savdo hamkorlari va so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi.

Tashqi savdo - bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish (eksport) va mamlakatga tovarlar kiritish (import)dan tashkil topadi. Eksport va import yig'indisi mamlakatning tashqi savdo aylanmasini tashkil etadi¹.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar - jahon xo'jaligi tizimida tez-tez takrorlanib turuvchi har xil darajadagi kompleks, alohida olingan bir mamlakat va ularning hududiy birlashmalari va sub'ektivlari, alohida tashkilotlar (tansmilliy, ko'p millatli korporatsiyalar) o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga oladi².

Tashqi savdo aylanmasi - muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakatmaterial resurslari zaxiralariga qo'shila-digan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi³.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashqi_savdo

² M.S. Mirsaidov. "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006, 304 bet

³ Astanakulov, O., & Qurbanaliyeva, N. (2023). O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(3), 28–33. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a3



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Iqtisodiy jarayonlar va aloqalarni avvalo jahon sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan qadimgi Sharqdan izlash mantiqan to'g'ridir. Iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'langan, aynan o'sha davrlardan mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo aloqalari vujudga kelgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Qadimgi Sharqda ancha rivojlangan davlatlardan biri Vaviloniya bo'lgan. Unda xususiy mulkchilik va tovar-pul munosabatlari nisbatan tez rivojlana boshlagan va jamiyatdagi kishilar borgan sari ko'proq tovar ayirboshlashga jalb qilingan. Qadimgi Vaviloniyada (Bobilda) Hammurapi (m.o. 1792-1750y., 18 asr) podsholik qilgan davrda tayyorlangan qonunlar to'plami (jami 282 ta) ancha obro' qozongan. Qonun moddalarida Vavilon fuqarolarning mulkini himoya qilish, ijara, sudxo'rlik va ishga yollash masalalari ko'rib chiqilgan.

Yana bir Qadimgi Sharq mamalakti bo'lgan, Xitoy mutafakkirlari ichida Konfutsiy (m.o. 551-479 y.) alohida o'rin tutadi. Konfutsiyning fikrlari uning shogirdlari yozib qoldirilgan «Lun yuy» («Suhbat va mulohazalar») to'plamida aks ettirilgan. Uning fikricha, mehnat ham kishilarning, ham davlatning boyligini ko'paytiradi. Konfutsiy «buyuk jamoa mulki» (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, ikkinchisini ko'proq qo'llaydi. Bu yerda u xususiy mulkni xo'jalik yuritishda ustun qo'yadi.

Antik dunyodagi iqtisodiy qarashlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiy fikrlar qadimgi Gresiyada Yana ham rivojlantirildi. Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida iqtisodiy muammolar maxsus tadqiqot ob'ektiga aylandi. Buni Sokratning shogirdi, Platonning zamondoshi Ksenofont (m.o. 430-355y.) asrlarida yaqqol ko'rish mumkin. Uning asarlari ichida «Daromadlar to'g'risida» va «Ekonomikos» (xo'jalik to'g'risida ta'limot) asarlari alohida ahamiyatga ega⁴.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, klassik iqtisodiyot vakillarining tashqi savdoni rivojlantirish haqidagi iqtisodiy go'yalari muhim ahamiyatga ega. Adam Smit (1723-1790) klassik siyosiy iqtisodning atoqli namoyandasidir. Mustaqillik Deklaratsiyasi imzolangan 1776 yili Angliyada zamonamizning eng muhim kitoblaridan biri Shotlandiyalik buyuk iqtisodchi Adam Smitning «Odamlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asari nashr etildi. Bu asar zamonaviy iqtisodiy fanning boshlanishi hisoblanadi. Shu kitob uning muallifi Adam Smitni «iqtisodiyot otasi» unvoniga sazovar etdi.

Adam Smit juda ko'plab nazariyalarni sihlab chiqqan. Xususan, Boylikning manbai mehnat va undagi mehnat taqsimoti hisoblanadi deydi. A.Smit iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi sohasining ustunligi g'oyasidan qutula olmagan. U hunarmandlar va savdogarlar mehnatini yer egalari mehnatiga nisbatan kam unumli bo'ladi, deb tasdiqlaydi.

A.Smit ta'limotidagi asosiy g'oyalardan biri – bu iqtisodiy liberalizm g'oyasi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini minimallashtirish g'oyasi, erkin raqobat asosida tashkil topadigan baho yordamida iqtisodiyotning o'zini o'zi boshqarish g'oyasidir.⁵

Shuningdek, David Rekardo (*On the Principles of Political Economy and Taxation*) asarida tashqi savdo aloqalari, mamalakatlar savdo munosabatlari doirasidagi g'oyalarini yanada rivojlantirib, o'zining iqtisodiy nazariyalarini yaratdi. Zamonaviy iqtisodchi olimlardan, Paul Krugman (*International Economics: Theory and Policy*), John Maynard Keynes (*The General*


⁴ Xalikova L.N., Mavlonova U.R. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» uslubiy qo'llanma SamSI

⁵ Xalikova L.N., Mavlonova U.R. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» uslubiy qo'llanma SamSI

Theory of Employment, Interest and Money)⁶ va Paul Samuelson (*International Economics*) kabi yirik iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida tashqi savdo aloqalarini o'rganishgan.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari holati tahlili o'rganilgan bo'lib, unda mamlakatimizning bugungi tashqi iqtisodiy holati, xalqaro maydondagi munosabatlari, hamkor mamlakatlar o'rtsidagi aloqalar va eksport va import holati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada tadqiqot ishi olib borish doirasida analiz, sintez, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbekiston Respublikada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan choratadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar- dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 65,9 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,4 mlrd AQSH dollariga yoki 3,8 % ga ko'paydi.



1-rasm O'zbekiston Respublika tashqi savdo aylanmasi (2024-yil yanvar - dekabr, mln AQSH dollari)⁸

1-rasmda. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil hisobi bo'yicha tashqi savdo aylanmasi aks ettirilgan. Unga ko'ra, eksport 38985.8 mln AQSH dollarini va import 26948.2 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Oradagi saldo esa -12037.6 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Bu mamlakatimizda importning ulishi yuqoriligini ko'rsatadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksporti hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-dekabr)⁹

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati (%) foizda		Egallab turgan o'rni	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/John_Maynard_Keynes

⁷ <https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/1970/samuelson/article/>

⁸ Stat.uz ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

⁹ Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Rossiya	3 495,7	3 682,9	110,9	105,4	1	1
XXR	2 486,6	2 054,9	94,5	82,6	2	2
Qozog'iston	1 417,1	1 452,3	100,7	102,5 3	3	3
Turkiya	1 263,3	1 169,3	76,9	92,6	4	4
Afg'oniston	857,2	1 089,3	113,3	127,15	5	5
Fransiya	400,4	795,1	5,5 b.	198,6	8	6
Tojikiston	608,3	552,2	116,5	90,8	7	7
Qirg'iz Respublikasi	634,4	513,3	64,6	80,9	6	8
AQSH	253,1	317,4	2,0 b.	125,4	11	9
Pokiston	269,3	299,5	145,4	111,2	10	10
BAA	298,4	249,6	2,4 b	83,7	9	11
Ozarbayjon	133,4	208,1	99,7	156,0	16	12
Litva	144,5	168,8	153,4	116,8	15	13
Eron	180,8	163,6	129,3	90,5	13	14
Belarus	128,9	163,3	100,1	126,7	17	15
Gankong	15,7	162,7	2,1 b.	10,4 b.	43	16
Buyuk Biritaniya	182,0	142,9	159,3	78,5	12	17
Turkmaniston	171,6	128,2	87,1	74,7	14	18
Hindiston	111,9	126,8	3,1 b.	113,3	18	19
Latviya	110,3	115,8	103,8	105,0	19	20

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga 2023-2024 yillarda amalga oshirgan eksporti hajmi tasvirlangan. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, eng yirik savdo hamkorlari sifatida Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya davlati egallagan. 2023-2024 yillarda bu dvalatlar bilan eksportning umumiy hajmi mos ravishda 13162.90 mln AQSH dollari va 13556,00 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirgan importi hajmi va o'sish sur'atlari (yanvar-dekabr)¹⁰

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati (%) foizda		Egallab turgan o'rni	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
XXR	11339,1	10 431,8	176,4	92,0	1	1
Rossiya	6 660,6	7 947,3	106,9	119,3	2	2
Qozog'iston	3 068,5	2 825,5	94,6	92,1	3	3
Koreya Respublikasi	2 313,5	1 960,8	100,6	84,8	4	4
Turkiya	1 897,7	1 768,0	109,2	93,2	5	5

¹⁰ Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Germaniya	985,5	1 116,5	92,0	113,3	6	6
Turkmaniston	924,2	1 020,0	126,3	110,4	7	7
Hindiston	649,1	853,6	99,1	131,5	9	8
AQSH	512,0	564,3	138,9	110,2	12	9
Belarus	525,8	550,8	127,7	104,7	11	10
Litva	481,9	430,3	120,3	89,3	13	11
Braziliya	652,3	426,2	117,9	65,3	8	12
BAA	423,2	400,1	107,0	94,5	15	13
Italiya	429,0	393,4	130,1	91,7	14	14
Chexiya	297,7	380,2	191,4	127,7	20	15
Fransiya	595,0	336,2	2,2 b.	56,5	10	16
Qirg'iz Respublikasi	333,8	333,1	118,9	99,8	16	17
Eron	322,8	333,1	109,0	103,2	17	18
Yaponiya	219,5	308,2	100,2	140,4	24	19
Polsha	315,2	285,6	147,6	90,6	19	20

2-jadval. O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirgan importi hajmi va o'sish sur'atlari 2023-2024 yillar kesimida aks e'ttirilgan. Unga ko'ra mamlakatimizning eng yirik importyor mamlakat sifatida Xitoy Xalq Respublikasi qolmoqda. Undan keying pog'onalarni Rossiya - 6 660,6 mln AQSH dollari, Qozog'iston - 3 068,5 mln AQSH dollari, Koreya Respublikasi - 2 313,5 mln AQSH dollari va Turkiya - 1 897,7 mln AQSH dollari ko'rsatkichga ega bo'lib turibdi. 2024-yilda esa Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi va Turkiya 2023-yilga nisbatan kamroq import qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari mamlakat iqtisodiyotining global bozor bilan integratsiyasini va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan birini tashkil etadi. Tadqiqot orqali O'zbekistonning tashqi savdo hajmi, eksport va import tarkibi, tashqi savdo saldosi va asosiy savdo hamkorlari o'rganildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari o'zgarishlar, yangi imkoniyatlar va o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ko'rsatmoqda. Mamlakatning eksport va import hajmining barqaror o'sishi va tashqi savdo saldosi ijobiy bo'lishi O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishining mustahkam poydevorini yaratadi. Kelgusida O'zbekistonning tashqi savdo siyosatini yanada takomillashtirish va yangi bozorlarni izlash, shu jumladan xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni davom ettirish mumkin.

References:

1. Xalikova L.N., Mavlonova U.R. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» uslubiy qo'llanma SamISI
2. M.S. Mirsaidov. "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006, 304 bet



3. Astanakulov, O., & Qurbanaliyeva, N. (2023). O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(3), 28–33. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a3
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashqi_savdo
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/John_Maynard_Keynes
6. <https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/1970/samuelson/article/>
7. www.stat.uz